



BIOLOGIK DORILAR VA ULARNING KLINIK QO'LLANILISHIDAGI AHAMIYATI

Bahodirova D.B.

*Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti, Davolash ishi yo'nalishi,
210-guruh, ToshDavTU*

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Mirzaahmedova K.T.

Farmakologiya, normal va patologik fiziologiya kafedrası, ToshDavTU

Dolzarbliği: So'nggi yillarda tibbiyot amaliyotida biologik preparatlardan, xususan monoklonal antitanachalar (masalan, Rituximab) foydalanish sezilarli darajada kengaymoqda. Mazkur dori vositalari tirik hujayralar yoki biologik tizimlar asosida ajratib olinib, yuqori darajadagi selektiv ta'siri bilan ajralib turadi. Ular kasalliklarning molekulyar mexanizmlariga bevosita yo'naltirilgan bo'lib, ayniqsa autoimmun, onkologik va yallig'lanish bilan kechuvchi kasalliklarda samaradorligi yuqori ekanligi ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan.

Tadqiqot maqsadi: Mazkur tadqiqot biologik dorilarning asosiy turlari, ularning ta'sir mexanizmlari hamda klinik qo'llanilish sohasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu preparatlarning zamonaviy tibbiyotdagi o'рни, samaradorligi va xavfsizlik ko'rsatkichlarini baholash ham tadqiqotning muhim vazifalaridan hisoblanadi

Materiallar va uslublar: Tadqiqot jarayonida biologik dorilarning, jumladan TNF- α ingibitorlari, interleykin blokatorlari va monoklonal antitanachalarning klinik amaliyotdagi ahamiyati tizimli ravishda o'rganildi. Klinik yondashuv asosida ularning turli kasalliklarda qo'llanilishi, bemor organizmiga ta'siri va davolash natijalari tahlil qilindi. Shu bilan birga, biologik preparatlar an'anaviy davolash usullari bilan qiyoslanib, ularning ustunliklari va cheklovlari aniqlashtirildi. Baholash jarayonida davolash samaradorligi, simptomlar dinamikasi, kasallikni nazorat qilish darajasi hamda bemor hayot sifatining yaxshilanishi asosiy mezonlar sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari: Olingan natijalar biologik dorilarning klinik samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Xususan, TNF- α ingibitorlari jumladan Adalimumab va Infliximab autoimmun, allergik va onkologik kasalliklarda maqsadli ta'sir ko'rsatib, kasallik faolligini kamaytirish va bemor holatini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, davolash jarayonida simptomlarning kamayishi va umumiy klinik holatning yaxshilanishi kuzatildi.

Xulosa: Biologik dorilar zamonaviy tibbiyotda muhim o'rin tutib, ko'plab kasalliklarni davolashda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ularning nishonli ta'siri kasallik jarayonini nazorat qilish, simptomlarni kamaytirish hamda bemor hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu preparatlarni qo'llashda individual yondashuv va xavfsizlik choralariga amal qilish muhim ahamiyatga ega.

